

TA'LIM VA TADQIQOTLARNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYA

Qurbonova Salomatbonu Yo'ldosheva

Buxoro inovatsion ta'lim va tibbiyot

Universiteti o'quvchisi

[Tel: +998943994422](tel:+998943994422)

Annotatsiya: Maqolada, zamonaviy ta'lim tizimi, ta'lim jarayonida o'quvchilar ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi uchun kerakli bazani yaratishni yo'lga qo'yish masalalari va bu borada ishlab chiqilayotgan ustuvor yo'nalishlar tahlil qilinadi. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida raqamli platformalarning o'rni, sun'iy intellekt kabilar muhokama qilinadi. Maqolada ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan tizimlar va tadqiqotlar ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: onlayn platformalar, sun'iy intellekt, ta'lim samaradorligi, metodologiya, ekologik omillar, texnologiyalar uyg'unligi.

Kirish

Xalqaro tajriba, ilg'or innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayoniga qo'shimcha kiritish, ilmiy izlanishlarning dolzarb yo'nalishlari, ta'lim sifati va usullarning zamonaviy yondashuvlari o'rganilib chiqilmoqda. Hozirgi kunda barcha mamlakatlarda ta'lim va tadqiqotlarda yangi g'oyalar, yangi usullar rivojlanmoqda. Texnologik taraqqiyot, sun'iy intellekt va ilmiy hamkorlikning kuchayishi ushbu sohalarda yangilik yaratishda imkon yaratmoqda. Ta'lim tizimidagi asosiy taraqqiyot yo'nalishi va tadqiqot sohasidagi eng muhim yo'nalishlar tahlil qilinib o'rganib chiqilmoqda.

1. Ta'lim tizimidagi onlayn platforma hozirgi kunda jadal rivojlanmoqda. Bu masofaviy ta'lim tizimlari, integrative dasturlar, virtual sinflar va ochiq ma'lumotlar bazasi orqali ko'plab ma'lumotlarni olishga imkon yaratadi. Bu har bir o'quvchi uchun juda qulay hisoblanadi.

2. O'quvchi yoshlar va har qanday soha vakillari uchun juda qulay tizimdan biri sun'iy intellektlar. Sun'iy intellektda ishlab chiqilgan o'quv tizimlari o'quvchilarning mustaqil ehtiyojlariga mos ravishda yangi bilimni olishga imkon yaratadi. Bu tizim o'quvchilarning qobiliyatlarini tahlil qilib, ularga mos ravishda ma'lumotlarni chiqarib beradi, ta'lim samaradorligini oshiradi. 3. Ilmiy tadqiqotlarda olib borishda xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar sohasida xalqaro hamkorliklarda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Jahon miqyosidagi akademik almashinuv dasturlari, hamkorlik loyihalari va grant dasturlari orqali olimlar turli mamlakatlarda tajriba

almashib, yangi ta'lim tizimini tadbiq qilishmoqda. Ilmiy hamkorlik natijasida tadqiqotlarning sifat darajasida sezilarli natijaga erishilmoqda.

4. Ijtimoiy fanlar va texnologiyalar uyg'unligida juda ko'plab texnologiyalar yaratilinishida qulay imkoniyat hisoblanadi. Raqamli antropologiya, ma'lumotlar tahlili asosida ijtimoiy jarayonlarni o'rganish kabi yo'nalishlar yangiliklar va tajribalar qilishga imkon yaratilindi, yangi ilmiy yo'nalishlar olib borish va o'rganishda qulaylik yaratdi.

5. Ta'lim tizimida barqaror rivojlanish va ekologik omillar Dunyo mamlakatlari ta'lim tizimini sifatli rivojlantirish bo'yicha turli usullar va tadqiqotlarni o'rganib tadbiq qilmoqda. Ekologik ta'lim, yashil texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan dasturlar ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu kelajak avlodni ekologikyani asrashga ma'suliyatli bo'lishi kerakligini uqtiradi.

Xulosa :Global ta'lim va tadqiqot tizimlaridagi innovatsion tendensiyalar jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga yangiliklar yaratishga chuqur bilim olishga imkon yaratadi. Texnologiyalarni o'rganish, xalqaro hamkorlikni ko'paytirish va ilm-fan taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash natijasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy izlanishlarni rivojlantir, yangi imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Kelajakda ta'lim tizimi raqamli transformatsiya va fanlararo yondashuvlar orqali yanada yuqori natijalarga erishishga olib keladi. Innovatsion ta'lim va tadqiqot yondashuvlari xalq taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov, P. (2007). O'tkan kunlar. Toshkent: Sharq.
2. Ismoilov, N. (2015). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Karimov, I. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O'zbekiston.
4. Jo'rayev, N. (2012). Ta'limda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
5. Boboyev, Sh. (2019). Ta'lim va tarbiya nazariyalari. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.